## Tarbiyasi og‘ir o‘smirlar ijtimoiylashuvida hamkorlik mexanizmlari

Bilamizkiy, yangi O‘zbekistonni dunyo miqyosida kuchli salohiyat, munosib obro‘-e’tiborga ega bo‘lgan, har tomonlama erkin va osuda mamlakatga aylanib borishiga, ijtimoiy hayotning asosiy turli sohalaridagi chuqur o‘zgarishlar, jamiyatning ijtimoiy institutlari faoliyati samaradorligini oshirishga bo‘lgan e’tibor, shu bilan birga yoshlarni har tomonlama yetuk va barkamol qilib shakillantirish kabi harakatlar sabab bo‘lmoqda. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlaridagi o‘zgarishlar, barcha ijtimoiy institutlarning faoliyatiga ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu o‘zgarishlar yoshlarni ijtimoiy rivojlantirish sohasida yangi muammolarning paydo bo‘lishiga olib kelmoqda. Shunday ekan hozirgi kunda ta’limni isloh qilish, insonparvar, ijodkor va ijtimoiy faol, tashabbuskor va yetakchi, jamiyatimizning yaqin kelajakdagi o‘zgarishlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatishga qodir shaxsni shakllantirish barchamizning ustuvor vazifamiz hisoblanadi.

O‘ktamova Oynisa Munisa qizi - Samarqand davlat tibbiyot universiteti Pedagogika-Psixologiya fakulteti stajyor-asistenti.

9 783841 630766

Globe EDIT

FOR AUTHOR USE ONLY

Globe EDIT



OYNISA MUZAFFAR QIZI O‘KTAMOVA

# Tarbiyasi og‘ir o‘smirlar ijtimoiylashuvida hamkorlik mexanizmlari

## Oila, mahalla va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar

**OYNISA MUZAFFAR QIZI O‘KTAMOVA**

**Tarbiyasi og‘ir o‘smirlar ijtimoiylashuvida hamkorlik mexanizmlari**

FOR AUTHOR USE ONLY

FOR AUTHOR USE ONLY

OYNISA MUZAFFAR QIZI O‘KTAMOVA

# Tarbiyasi og‘ir o‘smirlar ijtimoiylashuvida hamkorlik mexanizmlari

## Oila, mahalla va ta’lim muassasalari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar

FOR AUTHOR USE ONLY

GlobeEdit

**Imprint**

Any brand names and product names mentioned in this book are subject to trademark, brand or patent protection and are trademarks or registered trademarks of their respective holders. The use of brand names, product names, common names, trade names, product descriptions etc. even without a particular marking in this work is in no way to be construed to mean that such names may be regarded as unrestricted in respect of trademark and brand protection legislation and could thus be used by anyone.

Cover image: www.ingimage.com

Publisher:
GlobeEdit
is a trademark of
Dodo Books Indian Ocean Ltd. and OmniScriptum S.R.L publishing group

120 High Road, East Finchley, London, N2 9ED, United Kingdom
Str. Armeneasca 28/1, office 1, Chisinau MD-2012, Republic of Moldova, Europe
Managing Directors: Ieva Konstantinova, Victoria Ursu
info@omniscriptum.com

Printed at: see last page
**ISBN: 978-3-8416-3076-6**

Copyright © OYNISA MUZAFFAR QIZI O‘KTAMOVA
Copyright © 2026 Dodo Books Indian Ocean Ltd. and OmniScriptum S.R.L publishing group

FOR AUTHOR USE ONLY

**O‘KTAMOVA OYNISA MUZAFFAR QIZI**

# TARBIYASI OG‘IR O‘SMIRLAR IJTIMOIYLASHUVIDA HAMKORLIK MEXANIZMLARI

FOR AUTHOR USE ONLY

**KIRISH** ................................................................................................**3**

**I BOB. Tarbiyasi og‘ir o‘smirlarni ijtimoiylashtirishning ilmiy nazariy asoslari.** ........................................................................**9**

1.1 Tarbiyasi og‘ir o‘smir tushunchasi va ularning xulq-atvor xususiyatlari boyicha dunyo olimlari qarashlari.

1.2. Oila, mahalla va ta’lim muassasalarining o‘smirlar tarbiyasidagi o‘rni

1.3. Tarbiyasi og‘ir o‘smirlarning ijtimoiylashuvi jarayoniga ta’sir etuvchi omillar

**II BOB. Tarbiyasi og‘ir o‘smirlarni ijtimoiylashtirishda oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligining holati va muammolari** ..........................................**31**

2.1. O‘zbekistonda tarbiyasi og‘ir o‘smirlar bilan ishlashning mavjud tajribasi, “Shaxslararo munosabatlarni o‘rganish ”

2.2. Oila va mahalla hamkorligining o‘smir tarbiyasidagi muammolari

2.3. Ta’lim muassasalarining tarbiyasi og‘ir o‘smirlarni ijtimoiylashtirishdagi roli

**III BOB. Tarbiyasi og‘ir o‘smirlarni ijtimoiylashtirishda oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligini rivojlantirish usullari amaliy-emperik o‘rganish** ..........................................................................................**53**

3.1. Oila va mahalla ta’lim muassasi hamkorligini mustahkamlash eksperimental o’rganishning tahlili

3.2. Diagnostika ishlarining emperik va korrelyatsiya natijalari

**UMUMIY XULOSA** ..........................................................................**72**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI** ...........................................**75**

FOR AUTHOR USE ONLY

## KIRISH.

**Magistrlik ishining dolzarbligi.** Bilamizkiy, yangi O'zbekistonni dunyo miqyosida kuchli salohiyat, munosib obro'-e'tiborga ega bo'lgan, har tomonlama erkin va osuda mamlakatga aylanib borishiga, ijtimoiy hayotning asosiy turli sohalaridagi chuqur o'zgarishlar, jamiyatning ijtimoiy institutlari faoliyati samaradorligini oshirishga bo'lgan e'tibor, shu bilan birga yoshlarni har tomonlama yetuk va barkamol qilib shakillantirish kabi harakatlar sabab bo'lmoqda. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo'nalishlaridagi o'zgarishlar, barcha ijtimoiy institutlarning faoliyatiga ta'sir ko'rsatdi. Ushbu o'zgarishlar yoshlarni ijtimoiy rivojlantirish sohasida yangi muammolarning paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Shunday ekan hozirgi kunda ta'limni isloh qilish, insonparvar, ijodkor va ijtimoiy faol, tashabbuskor va yetakchi, jamiyatimizning yaqin kelajakdagi o'zgarishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishga qodir shaxsni shakllantirish barchamizning ustuvor vazifamiz hisoblanadi.

FOR AUTHOR USE ONLY

Albatta jamiyatda tarbiyasi og'ir o'smirlar psixikasi va shaxs strukturasi shakllanish jarayonlarini aniqlash hamda ularning ijtimoiy-psixologik holatini tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur dissertatsiya ishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni [1], "2022/2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2020-yil 18-fevraldagi PF-5938-son [2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni, hamda 2021-yil 13-iyuldagi PF-6260-son [3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim Vazirligi tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar o'smirlar tarbiyasida oila, mahalla va

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-sonli, "2022/2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni.

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining" PF-5938-son farmoni.

[3] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va ularning ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6260-son qarorlari.

ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorligining samaradorligini o'rganishga qaratilgan. 2024-yilgi hisobotda bu hamkorlikni kuchaytirish uchun maxsus usullar, dasturlar ishlab chiqilgan.[4] shuningdek, mazkur faoliyatga oid boshqa huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda darajada xizmat qiladi.

Bugungi kundagi asosiy tardibsizliklar oiladagi muomolar bu bo'iycha bajarilayotgan ishlar bunga yaqqol ko'rinib turibdi .

Zamonaviy hayotning inqirozli hodisalari, xususan, yosh avlodning nosotsial, tartibsiz xulq-atvori tendentsiyasining kuchayishi pedagogik hamjamiyatni bir paytlar yaxshi shakllangan "oila-maktab" ta'lim tizimining bo'shashishi va zaiflashishi sabablarini izlashga majbur qilmoqda". Bu tizimni yemirilishining sabablaridan biri va juda muhimi, bizningcha, o'smirlarda mustaqil fikr va harakatlarning zaiflashishi, shu bilan birga oila va maktab obro'sining qulashi, ularning o'zaro begonalashishidir. Natijada, jamiyatda tashvishli vaziyat yuzaga keldi, bunda salbiy yo'naltirilgan yetakchi o'smirlarni sonini ko'payib borayotgan yoshlarning anti ijtimoiy guruhlariga (jinoyatchi, tajovuzkor-millatchi va boshqalar) jalb qilmoqdalar. Bu muammo jamiyatning asosiy vazifalaridan birini belgilab beradi. Yetakchilik salohiyatini aniqlash va amalga oshirish an'anaviy ravishda bolalik davrida o'rganiladi. Bu tabiiydir, chunki bolalarning etakchiligi haqidagi g'oyalar dinamikasini birgalikda guruh faoliyati sub'ektlari oralig'idagi o'zaro ta'sir hodisasi sifatida bilmasdan, shaxsning yetakchilik salohiyatini ro'yobga chiqarishni qo'llab-quvvatlash uchun kontseptual modellarni qurish mumkin emas. Albatta yoshlar jamoasida ijobiy yo'naltirilgan yetakchi, o'ziga, ijodiy qobiliyati va qarashlariga ishonadigan, o'z bilimini biladigan shaxsni tarbiyalash orqali o'smirlar o'rtasida keng tarqalgan axloqsizlikka qarshi turish kabi sifatlarni shakillantirish boshqalarning fikri va his-tuyg'ularini qanday tushunish va ular bilan hisoblashish, o'z taqdirini qanday boshqarishni biladigan va o'qishida, ishida, oilaviy hayotida ma'lum ijobiy natijalarga erisha oladigan,

FOR AUTHOR USE ONLY

[4] O'zbekiston Respublikasi Ta'lim Vazirligi. *Ta'lim va tarbiya sohasida ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish.* Toshkent: Ta'lim nashriyoti, 2024.

boshqalarni boshqarishga qodir o‘smirlarni shakillantirish millatning o‘z oldida ana shunday yetakchini rivojlantirish va tarbiyalash uchun sharoit yaratish vazifasi turibdi.

**Tadqiqot obyekti:** Samarqand viloyati Bulung‘ur tumanidagi 22-IDUM 50 nafar o‘quvchi va Samarqand viloyati Bulung‘ur tumanidagi 16-maktab 50 nafar o‘quvchilari

**Tadqiqot predmeti**: O‘smirlarni ijtimoiylashtirish jarayonidagi oila, mahalla va ta’lim muassasalarining o‘zaro hamkorligi.Tarbiyasi og‘ir o‘smirlar bilan ishlashda foydalaniladigan pedagogik va psixologik metodlar.

**Tadqiqot maqsadi:** Tarbiyasi og‘ir o‘smirlarni ijtimoiylashtirish jarayonidagi oila, mahalla va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi hamkorlikning mavjud holatini o‘rganish. O‘smirlarning ijtimoiylashuvi jarayonida oila, mahalla va ta’lim muassasalarining ahamiyatini tahlil qilish. Tarbiyasi og‘ir o‘smirlarni ijtimoiylashtirishda samarali usullarni aniqlash va ularni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini ko‘rib chiqish.O‘smirlarni jamiyatga moslashuvi jarayonida hamkorlikni rivojlantirishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqish

FOR AUTHOR USE ONLY

**Dissertatsiya ishining ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

Integratsiyalashgan hamkorlik modeli: Oila, mahalla va ta’lim muassasasi o‘rtasidagi birgalikdagi faoliyatni samarali tarzda boshqarishga qaratilgan yangi yondashuvni ishlab chiqish.

Mahalla va ta’lim muassasasining hamkorligi: Mahalla va ta’lim muassasasining o‘zaro integratsiyasini kuchaytirish, o‘smirlarni ijtimoiylashtirishda yanada samarali natijalar olish.

Maktab amaliyotchi psixologlari uchun tarbiyasi og‘ir bolalarni ijtimoiylashtirishda oila mahalla va maktab hamkorligi ishlari bo‘yicha modul yaratish

Tarbiyasi og‘ir o‘smirlarni ijtimoiylashtirishda oila ,mahalla, ta’lim muassasaning psixologik omillariga oid xulosa va tavsiyalarni ishlab chiqilganligi.

**Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari:**

O‘z-o‘zini anglash o‘smirlardagi liderlik ko‘nikmalarini tarkib topibib borishida ularning hissiy-emotsional shaxslararo munosabatlari jinsga bog‘liq holda farqlanishi mumkin;

Muvafaqqiyatga erishish motivatsiyasi bilan o‘smirlarda yetakchilik sifatlarining namoyon bo‘lishi o‘rtasida psixologik bog‘lanish bo‘lishi mumkin;

O‘smirlarning yetakchilik sifatlari namoyon bo‘lishida oila va maktab hamkorligi ahamiyatli muhim omil sifatida eng yetakchi o‘rin tutishi mumkinligi.

**Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi:** Yetakchilik muammosi har doim yaqindan qiziqish uyg‘otgan. Xorijiy ijtimoiy-psixologiya vakillaridan birqancha olimlar yetakchilikni turlicha yo‘nalishlarda o‘rganib, jumladan yetakchilik turlari, yetakchilik uslublari, ijtimoiy roli kabi mavzularda mualliflik qilgan olimlar E.Bogardus, K.Byrd, R.Stogdill, G.Xoumans, L.Karter, F.Knikerboker, C.Gibb, R.Beyls, Slater, F.Fidler, R.Lord, D.Fillips[5] va boshqalar. Rus olimlaridan I.P.Volkov, E.A.Gantseva, V.D.Goncharov, D.M.Gvishiane, Yu.A.Zamoshkin, I.S.Kon, E.S.Kuzmin, I.S.Polonskiy, B.D.Parygin, A.G.Sorokova, L.I.Umanskiy, G.M.Andreeva, A.V.Petrovskiy [6] va boshqalar jamoani boshqarish va boshqaruv tuzulmalarini rivojlantirish o‘smir yoshdagi bolalar qobilyatlarini shakillantirishga ta’sirini o‘z madaniy muhiti sharoitida o‘rgangan. Mazkur tadqiqotchilar tomonidan bajarilgan ishlar natijalari o‘zbek oilalari etnik xususiyatlariga hamisha ham mos kelavermaydi, chunki u yerdagi demografik, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy va madaniy sharoit biznikidan farqlidir. Maxalliy olimlardan esa: A.Maxmudov, B.Erimbetov, N.Safayev, R.Samarov, E.G‘oziyev, O.Xayetov, D.Qosimov va boshqalar boshqaruv nazaryalari hamda o‘smir yosh xususiyatlari va ularni bosqichlari haqida bir qancha ilmiy ishlarni amalga oshirib o‘tishgan.

FOR AUTHOR USE ONLY

[5] https://www.proquest.com/

[6] Каримова В.М., Ҳайитов О.Э., Умарова Н.Ш. Бошқарув соҳасидаги профессионал компетенция асослари: Монография. / Проф. *В.М.Каримова* таҳрири остида. – Т.: ТДИУ

**Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi:** Tadqiqotimizda o‘smirlik davrida liderlik xususiyatlarini namoyon bo‘lishining psixologik omillarini o‘rganishda emperik metodlar: so‘rovnoma, suhbat, kuzatish, ish hujjatlari tahlili, R.B.Kettell tomonidan ishlab chiqilgan va modifikatsiya qilingan “Shaxsning 16 omil yordamida o‘rganish so‘rovnomasi T.Liri –Sobchik “Shaxslararo munosabatlarni o‘rganish ”metodikasi va Rodjers-Diamondning “Ijtimoiy psixologik moslashganlik” so‘rovnomalarridan foydalanildi. Mazkur metodikalar yordamida biz o‘quvchining ijtimoiy jarayonda shakillantirilgan liderlik sifatlari suhbatlashishga moyillik, emotsional barqarorlik, hukmronlikka intilish, ijtimoiy psxologik yetuklik va birqancha shunga o‘xshash sifatlarni aniqlashimiz mumkin bo‘ladi..

**Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati:** mazkur ish yuzasidan amalga oshirilgan ilmiy adabiyotlar sharhi, empirik ma’lumotlar tahlili, ular asosida ilgari surilgan nazariy g‘oyalar, ilmiy xulosalar ijtimoiy psixologiya, oila psixologiyasi, motivatsiya psixologiyasi, yosh davrlar psixologiyasi, deferinsial psixologiya va shaxslararo munosabatlarga oid mavjud bilimlarni yanada takomillashtirishga xizmat qiladi.

FOR AUTHOR USE ONLY

Tadqiqot natijalari bir qator amaliy vazifalarni hal etishda qo‘llanilishi mumkin, jumladan:

Ta’lim jarayonida o‘smirlarda tarbiyasi og‘ir o‘smir yoshidagi bolalarni ijtimoiylashtirishda oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligining shakllanishida o‘quv-tarbiyaviy ishlarining shakl va uslublarini takomillashtirish va rivojlantirishda;

O‘smirlik davrida tarbiyasi og‘ir o‘smirlarni ijtimoiylashtirishda oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligining shakllanish jarayonida ota-ona muomala malakasi va ko‘nikmalarini egallashda taklif etilgan tavsiyalardan foydalanishlarida;

Bundan tashqari, olingan natijalardan ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan pedagogik xodimlar va oliy ta’lim ta’limda tahsil olayotgan

mutaxassis talabalarni ilmiy nazariy qurollantirish ular uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar tayyorlashda foydalanishlari mumkin.

**Ish tuzilmasining tavsifi:** magistrlik dissertatsiyasi kirish, uchta asosiy bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tarkib topgan.

Tadqiqot ishining bosh ya’niy kirish qismida mavzuning ko‘rsatilishi va uning dolzarbligi, tadqiqot ob’ekti, predmeti, maqad va vazifalari, tadqiqot ishining yangiligi, taqiqotning asosiy masalalari va farazlari qo‘llaniladigan metodikalar tavsifi, ishning amaliy nazariy ahamiyati yoritilgan. I bobda tarbiyasi og‘ir o‘smirlar muammosini o‘rganishning ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan. II bobda Tarbiyasi og‘ir o‘smirlarni ijtimoiylashtirishda oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligining holati va muammolari o‘rganilgan. III bob tarbiyasi og‘ir o‘smirlarni ijtimoiylashtirishda oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligining amaliy-emperik o‘rganish amaliy jihatdan tadqiq etilgan.

FOR AUTHOR USE ONLY

## I BOB.Tarbiyasi og‘ir o‘smirlarni ijtimoiylashtirishning ilmiy-nazariy asoslari.

### 1.1.Tarbiyasi og‘ir o‘smir tushunchasi va ularning xulq-atvor xususiyatlari.

Tarbiyasi og‘ir o‘smir-bu ijtimoiy, oilaviy yoki shaxsiy omillar ta’sirida xulq-atvorida muammolar kuzatiladigan, intizomga bo‘ysunishi qiyin bo‘lgan o‘smirga aytiladi. Bunday o‘smirlar odatda jamiyat qoidalariga moslashishda, o‘qish yoki mehnat faoliyatida muammolarga duch kelishadi.Buning asosiy muomosi deb esa oila va jamiyat maktab va boshqa ta’lim muassasida o‘z mavqeini topa olmayotgan bolalar misol bo‘ladi. Tarbiyasi og‘ir o‘smirlarning asosiy xususiyatlari:

1. Intizomsizlik-o‘qituvchilar, ota-onalar yoki boshqa kattalarga itoat qilmaslik. 2. Shaxsiy va ijtimoiy muammolar-jahl, agressiya, o‘ziga ishonmaslik, yolg‘izlik hissi o‘ziga bo‘lgan ishonchning yo‘qligi.

3. Salbiy muhitga moyillik-yomon muhitga tushib qolish, zararli odatlarga berilish ehtimoli yuqori o‘zi bilmagan holatda bu jarayonlarga aralashib qolish. 4. O‘qish va mehnatga qiziqishning pastligi-darsga beparvolik, mas‘uliyatsizlik o‘z ustida ishlamaslik, erinchoqlik, barcha jarayonlarga beparvo bo‘lish.

5. Konfliktlarga moyillik-atrofdagilar bilan tez-tez tortishish, urushib qolish, jahilodorlik agressiya. Sabablari: Ya’ni bolalar o‘z-o‘zidan bunday holatga tushib qolmaydi ularga jamiyat, oila va ta‘lim muassalarining o‘rni va ahamyatijuda katta, ayniqsa bolaning bo‘sh vaqtini nazoratsiz qolishi asossiy sabablardan biridir.

- Oilaviy muammolar – ota-onalar ajralishi, oiladagi ziddiyatlar, yetarli e’tibor bo‘lmasligi.
- Ijtimoiy muhit – yomon do‘stlar, noto‘g‘ri tarbiya, shafqatsizlik yoki qattiqqo‘llik
- Psixologik omillar – o‘ziga ishonchsizlik, e’tiborsizlik, depressiya, travmalar.

Chora-tadbirlar:

- Ota-onalar va pedagoglar o‘smir bilan ochiq muloqot qilishlari lozim.
- Uning qiziqishlarini inobatga olib, foydali mashg‘ulotlarga yo‘naltirish.
- Psixolog va pedagoglarning yordamini olish.

FOR AUTHOR USE ONLY

- Ijobiy muhit yaratish, doimiy qo‘llab-quvvatlash. Bunday o‘smirlarga to‘g‘ri yondashish va e’tiborli bo‘lish orqali ularni jamiyatga moslashtirish mumkin.Pedagogika va psixologiya fanlarida "tarbiyasi og‘ir o‘smir" tushunchasi quyidagi mezonlar asosida izohlanadi: Pedagogik nuqtai nazar: Bu turdagi o‘smirlar tarbiyaviy ta’sirga qiyinchilik bilan beriladigan, maktab intizomi va sinfdagi qoidalarni buzadigan yosh guruhidir . Psixologik nuqtai nazar: Tarbiyasi og‘ir o‘smirlar ko‘pincha shaxsiy o‘zini anglash muammolari, past ijtimoiy moslashuvchanlik va o‘ta emotsional holat bilan tavsiflanadi . Ijtimoiy nuqtai nazar: Ushbu guruh vakillari jamiyat tomonidan belgilangan odob va intizom qoidalariga zid harakat qiluvchi, ba‘zan esa huquqbuzarlik qiluvchi shaxslar sifatida tan olinadi . Pedagogik nuqtai nazar: Tarbiyasi og‘ir o‘smirlar pedagogik nuqtai nazardan sinf va maktab tartiblariga rioya qilishda qiyinchilik tug‘diradigan, o‘qituvchi va sinfdoshlari bilan muloqotda nizolarga sabab bo‘ladigan yosh guruhdir. Bu bolalar pedagogik ta‘sirga qiyinlik bilan beriladigan bo‘lib, o‘z harakatlari orqali o‘qituvchilarga qarshilik ko‘rsatishga intiladi. Ushbu guruh bolalari quyidagi xulq-atvor muammolari bilan ajralib turadi: Intizomsizlik: Dars jarayonlarini buzish, qoidalarni buzish, o‘qituvchi talablarini e’tiborsiz qoldirish. Mustaqil fikrlashning sustligi: Berilgan vazifalarni ijodiy yondashmasdan bajarish yoki umuman bajarmaslik. O‘qishga nisbatan qiziqishning pasayishi: Ta’lim jarayoniga loqayd munosabat. - Jamoaviy munosabatlar qiyinchiligi: Guruh bo‘lib ishlashda nizolar keltirib chiqarish. 1204 - Psixologik nuqtai nazar - Tarbiyasi og‘ir o‘smirlar psixologik nuqtai nazardan emotsional muvozanatsizlik, past ijtimoiy moslashuvchanlik va o‘ziga bo‘lgan ishonchsizlik bilan ajralib turadi. Ushbu bolalarda quyidagi psixologik muammolar kuzatiladi:

FOR AUTHOR USE ONLY

- Emotsional beqarorlik
- Tez-tez kayfiyatning o‘zgarishi, asabiylashish va ba’zan tajovuzkorlik holatlari.
- Shaxsiy o‘zini anglashda muammo
- O‘zini jamiyatda keraksiz his qilish.
- Ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklari
- Yangi sharoitlarga moslashishda qiyinchilik, do‘stlar topishda muammolar.

- Tajovuzkorlik va izolyatsiya

- Ba'zida tajovuzkorlik orqali o‘z muammolarini hal qilishga urinish yoki o‘zini chetga olish holati. Psixologlarning fikricha, tarbiyasi og‘ir o‘smirlarning xulq-atvor muammolari ko‘pincha bolalik davridagi travmalar yoki oila muhitidagi nizolar bilan bog‘liq bo‘ladi. Ha har bir inson tug‘ilishi bilan qanday sharoitda tug‘ilishi qanday oilada tug‘ilishini bilmaydi bu esa bolalarning bu vazioyatga ko‘nikib ketishi bilan davom edadi .Bolalikdagi murakkab xotiralar bolalarning umri oxirigacha davom etadigan hayotida yo pasitiv yo bo‘lmasa negativ yo‘l bilan hayotlariga ta’sir etadi. Ijtimoiy nuqtai nazar-Ijtimoiy jihatdan tarbiyasi og‘ir o‘smirlar jamiyat qoidalariga zid harakat qiluvchi, ba’zan esa huquqbuzarlikka moyil bo‘lgan shaxslar sifatida tavsiflanadi. Ularning xatti-harakatlari quyidagilar bilan ajralib turadi: Huquqbuzarlik va qoidabuzarliklar - Noto‘g‘ri harakatlar yoki jinoyatchilik holatlariga jalb bo‘lish. Salbiy guruhlarga qo‘shilish - Mahallada noto‘g‘ri qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi guruhlar bilan muloqot qilish. Ijtimoiy mas'uliyatsizlik - o‘z harakatlari uchun shaxsiy masulyatni his qilmaslik. Giyohvandlik va zararli odatlar-Yomon odatlarni qabul qilish xavfi Ijtimoiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tarbiyasi og‘ir o‘smirlarning xulq-atvori ko‘pincha mahalla, do‘stlar davrasi va ommaviy axborot vositalari ta’siri natijasida shakllanadi. Shakillanib borqayotgan bu jarayonlardan o‘tib ketish osonlikcha bo‘lmasligi aniq ekanligini ko’plab psixolog olimlar ta’kidlab o’tganlar.[7] Tarbiyasi og‘ir o‘smirlar – bu o‘smirlar, ular odatdagi rivojlanish davrida ko‘rishga odatlangan xulq-atvor va hissiy reaktsiyalardan farqli ravishda o‘zlarini namoyon qiladilar. Ular ko‘pincha o‘zlarini anglashda, ijtimoiy muhitga moslashishda yoki shaxsiy chegaralarni o‘rnatishda qiyinchiliklarga duch keladilar. O‘smirlik davri psixologik va fiziologik o‘zgarishlarning keng tarqalgan davridir. Bu davrda o‘smirlar jismoniy rivojlanish va hissiy o‘zgarishlarni boshdan kechirishadi, shu sababli ularning xulq-atvori ham beqaror bo‘lishi mumkin.

Dunyo olimlari o‘smirlik davri va tarbiyasi og‘ir o‘smirlar haqidagi fikrlarini turli nazariyalar orqali taqdim etganlar. Ularning asosiy qarashlari quyidagilardan

FOR AUTHOR USE ONLY

[7] file:///C:/Users/talaba/Downloads/Turakulov%206.pdf

iborat:Sigmund FreudFreudning psixoanalitik nazariyasida o‘smirlik davri gormonlar va ichki hissiyotlarning beqarorligidan kelib chiqadigan bir davr sifatida ta’riflanadi. Freud, o‘smirlar o‘zlarining id (insonning arzu va ehtiyojlarini ifodalovchi qism) va ego (shaxsning o‘zini va tashqi dunyoni boshqarish uchun zarur bo‘lgan psixologik tizim) o‘rtasidagi muvozanatni topish uchun kurashishadi. Bu kurashning natijasida o‘smirlar ko‘plab ichki muammolar va tashqi muammolarni boshdan kechiradilar. Freud bu davrni "genital bosqich" deb atadi, bu yerda shaxsiyatning shakllanishi va mustahkamlanishi amalga oshadi. Tarbiyasi og‘ir o‘smirlar bu kurashni kuchaytirganliklari sababli, ularning xulq-atvori ko‘pincha isyonkor va beqaror bo‘ladi.[8]

Erik Erikson Erikson o‘zining "shaxsiyatning rivojlanishi" haqidagi nazariyasida o‘smirlik davrini juda muhim bosqich deb ta’riflaydi. U o‘smirlikni "identifikatsiya va rolni aniqlash" davri deb belgilaydi. Eriksonning fikriga ko‘ra, o‘smirlar o‘zlarini anglash va ijtimoiy roldan o‘z o‘rinlarini topish uchun kurashadilar. Agar o‘smirlar bu davrni muvaffaqiyatli o‘tkazmasalar, ularning o‘zini anglashda va jamiyatdagi o‘z o‘rinlarini topishda qiyinchiliklar yuzaga keladi. Tarbiyasi og‘ir o‘smirlar ko‘pincha identifikatsiya qilishda va o‘zlarining roli haqida qaror qabul qilishda qiynalishadi, bu esa ularning xulq-atvorida beqarorlikni keltirib chiqaradi.[9]O‘smirlar juda ko‘p hollarda qaroq qabul qilish va kimgadir o‘z fikrini bildirishdda qiyinchiliklar ga duch kelishishadi bu muomolar o‘z navbatida keng jamoatchilik ishi uchun muhim javha sifatida qabul qilish va bolarning bu boradagi fikrlarini aytib o‘tish eng muhim jarayon hisoblanadi

Jean Piaget Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, o‘smirlik davri — bu "formal operatsiyalar" bosqichidir. Bu davrda o‘smirlar mantiqiy fikrlash va abstrakt tushunchalarni anglashda rivojlanadilar. Piaget o‘smirlikni, bir tomondan, aqliy rivojlanishning eng yuqori nuqtasi sifatida tasvirlaydi, lekin boshqa tomondan, bu davrda o‘smirlar ko‘plab qarama-qarshiliklarga duch keladi.

FOR AUTHOR USE ONLY

8 Leipzig: Internationaler Psychoanalytischer Verlag.

9 Erikson, E. H. (1968). *Identity: Youth and Crisis*. New York: Norton & Company.

Tarbiyasi og‘ir o‘smirlar, ko‘pincha mantiqiy fikrlash va ijtimoiy qoidalarga moslashishda muammolarni boshdan kechiradilar deb takidlagan.[10]

Tarbiyasi qiyin o‘smirlar: Xulq-Atvor Xususiyatlari

Tarbiyasi qiyin o‘smirlarning xulq-atvori, o‘smirlik davridagi o‘zgarishlar, ichki kurashlar va tashqi muhit bilan o‘zaro aloqalar natijasida beqaror bo‘lishi mumkin. O‘smirlar o‘zlarini boshqarish, o‘z his-tuyg‘ularini ifodalash va jamiyatdagi o‘z o‘rinlarini topishda qiyinchiliklarga duch keladilar.

Birinchidan, o‘smirlar o‘zining mustaqillikka bo‘lgan talablarini kuchaytiradilar, bu esa o‘zlarini oila yoki jamiyatga qarshi qo‘yishlariga olib kelishi mumkin. Ikkinchidan, o‘smirlar o‘z o‘rinlarini topishda va shaxsiy maqsadlarini amalga oshirishda qiyinchiliklarga duch kelganliklari uchun, ularning xulq-atvori ko‘pincha isyonkor yoki beqaror bo‘ladi.

Bundan tashqari, o‘smirlik davrida ijtimoiy ta’sirlar katta rol o‘ynaydi. Tengdoshlarning fikrlari va o‘zaro munosabatlar, o‘smirlarning o‘zini anglashiga ta’sir qiladi. Tarbiyasi og‘ir o‘smirlar, o‘zaro aloqalarda va ijtimoiy muhitda yuzaga kelgan o‘zgarishlar tufayli, tez-tez xatolar qilishlari va o‘z his-tuyg‘ularini to‘g‘ri ifodalashda muomolarga duch keladilar.

Tarbiyasi og‘ir o‘smirlarning xulq-atvorini tushunish, ularning o‘zini anglash jarayonini qo‘llab-quvvatlash va jamiyatga moslashish jarayonlarini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Dunyo olimlarining qarashlari bu jarayonlarni turli psixologik va ijtimoiy nuqtai nazardan o‘rganishga yordam beradi. O‘smirlik davri — insonning hayotidagi eng murakkab jarayoni hisoblanadi.Tarbiyasi og‘ir ya’niy oilaviy muomolar ostida qolib ketgan o‘smirlar o‘zining psixologik, emosional yoki ijtimoiy rivojlanishida katta qiyinchiliklarga duch keladigan o‘smirlar hisoblanadi. Ular ko‘pincha o‘z sinfdoshlari, oilasi yoki jamiyat bilan muammolarga duch keladi. Tarbiyasi og‘ir o‘smirlarning xulq-atvorida odatda quyidagi belgilarga duch kelinadi:

---

[10] Piaget, J. (1950). *The Psychology of Intelligence*. London: Routledge & Kegan Paul.

FOR AUTHOR USE ONLY

**Ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar**: Tarbiyasi og'ir o'smirlar ijtimoiy guruhlarga moslashishda qiynalishadi, ularning o'z sinfdoshlari bilan yaxshi aloqalar o'rnatishlari qiyin bo'ladi. Maktabda, oilada yoki jamiyatda o'zini izolyatsiya qilish yoki yakkalanish mumkin.

**Emosional beqarorlik**: O'smirlar o'z his-tuyg'ularini boshqarishda muammolarga duch kelishadi. Bu beqarorlik o'zini tajovuzkorlik, depressiya yoki harakatlarning tez o'zgarishi sifatida namoyon qilishi mumkin.

**Xulq-atvorning noaniqligi**: Tarbiyasi og'ir o'smirlar xulq-atvorini boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ularning xulq-atvori ko'pincha noaniq bo'ladi, ular o'zlarini muhitga qarab turlicha tutishadi.[11] Har bir jamiyat shakillanib borar ekan bu boradagi ilmiy va nazariy qarashlar bunga asosiy ro' o'ynabgina qolmay o'smirlar hayotidagi eng muhim jafha bo'lib hizmat qiladi. Tarbiyasi og'ir o'smirlarning Xulq-Atvor Xususiyatlari.Tarbiyasi og'ir o'smirlarning xulq-atvorida bir qator keraksiz bo'lgan jarayonlar bilan bog'lanadi yoki o'zlari hohlamaydigan holatlar vujudga keladi . Bu xulq-atvor xususiyatlari ko'pincha o'smirlarning individual rivojlanishidagi asosiy muammolarni duch keladi.

FOR AUTHOR USE ONLY

Tarbiyasi og'ir o'smirlar Bilan Ishlashda Yondoshuvlar Tavsiyalar va

Tarbiyasi og'ir o'smirlar bilan samarali ishlash uchun psixologlar va pedagoglar turli yondoshuvlarni qo'llashlari mumkin. Ushbu metodlar o'smirlarning ijtimoiylashtirishiga, xulq-atvorini yaxshilashga yordam beradi:

**Individual psixoterapiya va maslahatlar**: Tarbiyasi og'ir o'smirlar bilan birga individual sessiyalar o'tkazish, ularning his-tuyg'ularini anglash va boshqarish imkonini beradi. Bu yondoshuv o'smirning o'zini yaxshiroq tushunishiga va o'z his-tuyg'ularini boshqarishga yordam beradi.

**Gruppaviy mashg'ulotlar va psixoterapiya**: O'smirlar o'rtasida ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish va o'zaro tajriba almashish uchun guruh mashg'ulotlari tashkil etish mumkin. Bunday mashg'ulotlar ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi, o'smirlar o'zini boshqalar bilan qanday

---

[11] *(Manba: E.V. Biryukova, "Psikhologiya podrostkov i adolescents", Novosibirsk, 2013)*

munosabatda bo‘lishini o‘rganadilar. Gruppaviy mashg‘ulotlar — bu bir nechta odamlarning birgalikda qatnashadigan, o‘zaro fikr almashish, o‘zlarini anglash, o‘zgarishlarni amalga oshirish va psixologik yordam olish maqsadida tashkil etilgan mashg‘ulotlardir. Ushbu mashg‘ulotlar psixoterapiya, trening yoki o‘qitish shaklida bo‘lishi mumkin. Gruppaviy mashg‘ulotlar ko‘pincha guruh ichidagi aloqalar, o‘zaro yordam, hissiy tajribalarni baham ko‘rish va jismoniy, ruhiy hamda ijtimoiy muammolarni hal qilishga yo‘naltirilgan. Mashg‘ulotlarda qatnashuvchilar bir-biriga o‘z hissiyotlari va tajribalari bilan bo‘lishishadi, shu bilan birga ularning o‘z-o‘zini anglash va boshqa ishtirokchilarni tushunish imkoniyatlari ham kengayadi.

Gruppaviy mashg‘ulotlar, odatda, maxsus tayyorlangan psixoterapevt yoki o‘qituvchi rahbarligida o‘tkaziladi. Ular qatnashchilarni ijtimoiy o‘zgarishlarga, xulq-atvorni o‘zgartirishga, shuningdek, shaxsiy va ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishga undaydi. Gruppaviy mashg‘ulotlar shaxslar o‘rtasida ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantiradi, hissiy reaksiya va holatlarni boshqarish, stressni yengish, turli muammolarga yechimlar topish imkoniyatlarini yaratadi. [12]Tarbiyasi og‘ir o‘smirlar bilan ishlash psixologik, pedagogik va sotsiologik jihatdan murakkab va nozik jarayon hisoblanadi. O‘smirlik davri – bu shaxsning shakllanishi, identifikatsiyasi, va ijtimoiy moslashish jarayonlarining eng muhim bosqichlaridan biridir. Bu davrda o‘smirlar ko‘pincha o‘z hissiy va xulqiy holatlari bilan bog‘liq turli muammolarga duch keladilar. Ularning xulq-atvorida o‘zgarishlar, isyonkorlik, ota-onalar yoki jamiyat bilan konfliktsiyalar yuzaga kelishi mumkin. Shu bois, tarbiyasi og‘ir o‘smirlar bilan ishlashda o‘ziga xos yondoshuvlar va usullarni qo‘llash zarur.Emotsional Qo‘llab-Quvvatlash va Tushunish.O‘smirlar o‘z hissiyotlarini boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin, shu sababli ularning hissiy holatini tushunish va ularni emotsional jihatdan qo‘llab-quvvatlash muhimdir. O‘smirlar o‘zlarini to‘liq anglamasliklari mumkin, bu esa o‘zlariga va boshqalarga zarar yetkazadigan xatti-harakatlarga olib

FOR AUTHOR USE ONLY

[12] G. E. M. (2020). Gruppaviy mashg‘ulotlar va ularning psixologik foydalari. *Psixologiya va rivojlanish*

kelishi mumkin. Pedagoglar va psixologlar o'smirlarning ichki dunyosini tushunish va ularning hissiy holatini qo'llab-quvvatlash orqali samarali ish olib borishlari mumkin. Bu, o'z navbatida, ularni isyonkor xulq-atvordan uzoqlashtirishga yordam beradi .[13]

L.I.Bojovichning fikricha, boshqa insonni bilish, o'zini-o'zi bilishdan ilgari sodir bo'ladi va uning uchun manba, asos bo'lib xizmat qiladi. O'z-o'zini baholashda umumiy qabul qilingan mezon, o'zini boshqalar bilan solishtirish hamda taqqoslashdir. Inson faoliyat davomida o'zini boshqa odamlar bilan taqqoslab, dastlab boshqalarda ko'rganini o'zida seza boshlaydi va natijada o'zining shaxs sifatlarini anglab yetadi. Boshqa odamlarda ko'rgan shaxsning turli xususiyatlarini o'zlashtirishi va o'zida shakllantirishi o'ziga xos hodisa sifatida boshqa bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan. Olimlarning fikricha, o'zini o'zi baholash insonda idealning mavjudligi bilan uzviy bog'liqdir. Psixologik tadqiqotlarda idealni o'zlashtirilishi, uning funksiyalari yosh xususiyatlari va shaxs rivojlanishida ochib berilgan. Idealning xarakteri va mustahkamlik darajasi bolani rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. Anglab yetilgan ideal namunaviy mezon sifatida o'quvchilarning o'zini hamda boshqalarni harakatlarini baholash paytida ishtirok etadi.

FOR AUTHOR USE ONLY

L.Bojovich, atrofdagilarning insonni xulqi, faoliyat natijalari hamda bevosita uning shaxsiy sifatlarini baholashlari ham undagi o'ziga baho berishni rivojlantiruvchi muhim manbadir, deydi. Uning fikricha, o'quvchini o'z-o'zini anglashidagi ijtimoiy baho ikki hil bo'ladi:

-uning xulqi atrofdagilar talablariga mos keladigan mezon hisoblanib, u bolaga go'yoki atrof-muhit bilan uning o'zaro munosabatlari xususiyatlarini ko'rsatib beradi va shu bilan birga, uning emotsional uyg'unligi va xulqini subyekt sifatidaga baholanishini belgilab beradi.

[13] S. G. (2019). Emotsional qo'llab-quvvatlash va o'smirlar bilan ishlash. *Journal of Child Psychology*

-ijtimoiy baho berish bolaning xulqi hamda faoliyatida u yoki bu sifatlarni ajratib olishga va o‘zining bahosi qilib olishga yordam beradi. L. I. Bojovich o‘z tadqiqotlarida o‘quvchining o‘zini o‘zi anglashining shakllanishida ijtimoiy baho berish funksiyasi va uning pedagogik ahamiyatini asoslab berdi va L.I.Bojovichning shaxs rivojlanishini davrlashtirish tizimi aynan “Men” siymosi rivojlanganligi va anglanganligiga asoslangan edi. Bu borada ko‘plab psixolog olimlar qatori taniqli fiziolog-olim I.P.Pavlov ham ish olib borgan. Uning fikricha, o‘zini o‘zi muvofiqlashtirish, o‘zini o‘zi takomillashtirish tizimidir.[14]

Ta’rifda keltirilganiday, yuqoridagi fikirlarni tahlil qiladigan bo‘lsak har bir jarayon va holatlar uchun bu ko‘rsatkichlar to‘ri va aniq malumotlar berib o’tilgan. Bunday shaxslar esa jamiyatda liderlik sifatlarini namoyon qilib, jamiyatning yuqori sifatlarini o‘zida jam qilgan va yuqori marralarga intiluvchan insonlarga aylanadi.

FOR AUTHOR USE ONLY

Psixologiyada V.V.Stolinning faoliyat yondashuvi nuqtai nazaridan ishlab chiqilgan konsepsiyasida shaxsning nazorat o‘chog‘i sifatida o‘lchanadigan sifati shaxsning o‘z-o‘zini onggidagi aks ettirishning funktsional ko‘rsatkichi sifatida qaraladi. Uning faoliyatdagi ishtiroki, subyektning o‘z hayotidagi voqealar bilan aloqasi bor yoki aloqasi yo‘qligi V.V.Stolin nazdida ichki motivatsiya va o‘z faoliyatining maksimal darajada bog‘lanishi bo‘lib, bu muvaffaqiyatli faoliyatning zaruriy ko‘rsatkichi deb hisoblanadi. Shunday qilib, subyektiv nazorat va yetakchilik muammosiga nazariy yondashuvlarni faoliyatning alohida turi sifatida ko‘rib chiqqach, rahbarni faoliyat subyekti sifatida tushunish va subyektiv nazoratning joylashuvi o‘rtasidagi aniq muvofiqlikni ta’kidlash kerak. Boshqaruv o‘chog‘iga oid nazariy ma’lumotlarni tahlil qilishdan ma’lum bo‘ladiki, bu ko‘rsatkich shaxsning yuklangan mas’uliyatni qabul qilishga yoki rad etishga tayyorligining eng muhim ko‘rsatkichidir.

O‘smirlik davri yana tez qaror qabul qilish davri ham deb ataladi. Bunga sabab ularning ko‘p sohalarda o‘ylab emas tavakkal qilib ish yurutishlaridan kelib

[14] Жадько Н.В. Лидерами не рождаются. Как раскрыть скрытые ресурсы*// Библиотечное дело. 2006. - № 10. - С. 37-38.

chiqib baholanadi. Ushbu yunalishda I. I.Mechnikovning ikkita asosiy farqlovchi xususiyatni ajratib ko‘rsatadi;

- Yoshlikda, normal hayot sharoitida, instinkt o‘zini himoya qilish etarli darajada bo‘lmaydi. Shuning uchun yoshlar ko‘pincha tavakkal qilishadi.

- Yoshlar uchun ko‘p ishlar arzimas narsalar kabi ko‘rinadi va arzimas narsalar ustidan, o‘z harakatlarining oqibatlari haqida qayg‘urmaslik hissi yotadi.

Yoshlar nigohida ko‘pincha yetarli asoslangan yuksak maqsadli ishlar ularda ma’suliyat hissini oshirib tavakkal qilishdan asraydi, lekin kamdan-kam yosh yigit - qizlar ushbu jarayonni to‘liq his etadilar. Yoshlik - bu fidoyi qurbonliklar, balki turli xil suiste’moliklar davri hisoblanadi. Hayotni ne’mat sifatida qadrlamaslik insonning yoshligida shunday bo‘lishiga olib keladi. Pessimistik kayfiyatlar paydo bo‘ladi. I. I. Mechnikov shunday deb yozadi, birinchidan «baxt va qayg‘u tuyg‘ulari natijalarini sarhisob qilishda, yoshlik baxt xissini qiymatini pasaytiradi va qattiq salbiy his-tuyg‘ularni bo‘rttiradi. Ikkinchidan, yoshlik qandaydir tabiiylik bilan ajralib turadi. Jumladan organizimda disgarmoniya paydo bo‘ladi. Shunday qilib, istak va intilishlar iroda va kuchdan oldinroq rivojlanadi.[15] Xarakter, bunday sharoitda o‘smirda har doim ham ba’zi histuyg‘ularni nazorat qilish imkonini bermaydi. Haddan tashqari intilishlar va istaklar kuchayadi va bu borada u yosh bolaga o‘xshaydi, oldida ko‘rgan hamma narsani olishga intiladi. I. I. Mechnikov yana shunday deb takidlagan; “ o‘smirlar o‘z talablarini birmuncha erta shakilantiradi”. Hayotning haqiqiy hodisalarini esa o‘zaro bog‘liqligini baholashga qodir bo‘la olmaydilar, ular tushunmaydilar chunki ularning kuchlari intilishlarini ro‘yobga chiqarish uchun etarli darajada emasligi, iroda eng kech rivojlanayotgan jarayon ekanligini anglatadi. Shuning uchun, ba’zi yoshlar o‘zlarini reaksiyasiga va o‘z xohish-istaklarini qondirish uchun iqtidorsizlikdan qiynalib baxtsizlik tuyg‘ularini boshdan kechiradilar. Aynan ushbu jarayonda ularning ba’zi bir sifatlari namoyon bo‘lmasdan so‘nishiga sabab bo‘ladi, bu esa jamiyatga kerakli bo‘lgan liderlarni shakillantirish jarayonlarini

[15] Тришкина А. Я — лидер! Дополнительно образование и воспитание. -2006:-№4.-С. 38-42.

FOR AUTHOR USE ONLY

murakkablashtiradi. O‘zbekiston olimlari qarashlarini ham keltirib o‘taman bizning mamalakatimizda ham juda ko‘plab olimlar o‘z qarashlari bilan va ilmiy izlanishlari bilan juda ko‘plab izlanishlar olib borgan.

Sh.A. Sharipovning ilmiy qarashlariga ko‘ra, o‘smir yoshidagi nojo‘ya xulq-atvor — bu faqat individual xatolik emas, balki o‘smirning jamiyatga moslashishidagi (ijtimoiylashuvdagi) qiyinchiliklar natijasidir. O‘smirlar odatda o‘z shaxsiyatini namoyon etish, o‘zining “men”ini topish, hurmat qozonish istagi bilan yashaydi. Agar bu ehtiyojlar ijobiy yo‘nalishda qondirilmasa, ular salbiy guruhlarga (masalan, tajovuzkorlikka moyil tengdoshlar, maktabdan qochadigan do‘stlar, noqonuniy faoliyat bilan shug‘ullanuvchilar) qo‘shilish orqali o‘zlarini tasdiqlashga harakat qiladilar[1].

**Ijtimoiy yetakchilikka intilish – muhim sabab**

FOR AUTHOR USE ONLY

Sharipov bu yerda o‘smirlarning **ijtimoiy maqom** izlash xususiyatiga alohida e’tibor qaratadi. O‘smirlar o‘z tengdoshlari orasida etakchi bo‘lishga, tan olinishga, e’tiborga sazovor bo‘lishga intiladilar. Agar bu intilishlar ijobiy yo‘naltirilmasa (masalan, ta’limda muvaffaqiyat, sport yoki san’atdagi yutuqlar orqali), ular buni salbiy yo‘llar bilan amalga oshirishga urinadilar — bu esa tartib buzilishlari, tajovuzkorlik yoki jinoyatchilikka olib kelishi mumkin[1].

**Maktab va tarbiya muassasalarining roli**

Sharipov ta’lim muassasalari (maktablar, kollejlar, litseylar) faqat bilim beruvchi emas, balki o‘smirlarning **ijtimoiy faolligini ijobiy yo‘naltiruvchi maskan** bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. Ya’ni, o‘quvchilar uchun:

- Etakchilik qobiliyatlarini namoyon etish imkoniyatlari (masalan, sinf sardori, to‘garak rahbari)
- Sport, san’at, ilmiy to‘garaklar orqali o‘zini ko‘rsatish imkoniyatlari
- Jamoatchilik ishlari, volontyorlik faoliyati

- Muammoli oʻsmirlar uchun individual psixologik yondashuv

shular orqali oʻsmirlar ijobiy ijtimoiy yoʻnalishga yoʻnaltirilishi mumkin[16].

Bu qarashlarga boshqa oʻzbek olimlarning ham oʻz fikir va tafsiyalarini kiritib oʻtmoqchiman.Oʻsmirlar tarbiyasidagi oʻrni va ahamyati oʻz navbatida turlicha tariflanadi.

O .Pardayevning qarashlariga koʻra  oʻsmirlik davridagi muomolar keltirilib oʻtilgan.Oʻsmirlikni psixologik inqiroz davri deb baholaydi. Tarbiyasi ogʻir oʻsmirlar koʻpincha emosional beqarorlik, agressivlik, va shaxsiy identifikatsiya muammolari bilan ajralib turadi. Bunday oʻsmirlar bilan ishlashda esa psixokorrektsion usullar (masalan, guruh terapiyasi, muloqot treninglari) qoʻllash samarali hisoblanadi[17].Oʻsmirlikda kechayotgan bunday ilmiy va har tamonlama keng tasurot boʻlgan bu qarashlar ham keng ma’noda bollar tarbiyasi va ular bilan olib borilayotgan ishlar bilan bogʻlangan boʻlib har bir salbiy holatlar uchun oʻz fikir va tafsiyalarini keltirib oʻtishgan . Abdurahmonov, Gʻ.Gʻfikriga  koʻra, tarbiyasi ogʻir oʻsmirlar, asosan, oiladagi tarbiya kamchiliklari**,** e’tibor yetishmovchiligi va ijtimoiy nazorat sustligi tufayli shakllanadi. Oʻsmirlar tarbiyasida **i**ndividual yondashuv**,** psixologik yordam va sogʻlom ijtimoiy muhit muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bunday oʻsmirlar bilan ishlashda pedagog va ota-onaning hamkorligi zarurligi koʻrsatib oʻtiladi.[18]Abduraxmonov  oʻz fikirlarida oiladagi tarbiyaviy kamchiliklarga toʻxtalib oʻtgan boʻlib bu boradagi qarashlari va jarayonlar uchun keng ma’noda fikirlari bilan boyitgan .Oilada kamchiliklar va nosogʻlom muhit mavjud ekan  oʻsmirlar tarbiyasida oʻzgarishlar sodir boʻlaveradi .B unday jarayonlarning oldini olish uchun oilada va jamiyatda har bir bola shaxsiga e’tiborli boʻlish va bu boradagi ishlar bilan keng qamrovli ravishda izlanishlar oilb borilishi kerak.

FOR AUTHOR USE ONLY

[16] **Sharipov, Sh.A.** (2010). *Pedagogik nazorat va tarbiya metodlari*. Toshkent: Oʻzbekiston pedagogika nashriyoti.
[17] Pardaev, O. (2012). *Oʻsmirlarning psixologik xususiyatlari va ularni tarbiyalash masalalari*. Toshkent: Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi nashriyoti.
[18] Abdurahmonov, Gʻ.Gʻ. (2009). *Pedagogik mahorat asoslari*. Toshkent: Oʻzbekiston pedagogika nashriyoti.

## 1.2 .Oila, mahalla va ta'lim muassasalarining o'smirlar tarbiyasidagi o'rni

Oila, mahalla va ta'lim muassasalarining o'smirlar tarbiyasidagi o'rni juda muhim va bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Har biri o'smirlarning shaxsiyati, axloqiy qarashlari, ijtimoiy faolligi va jamiyatga moslashishi uchun o'ziga xos ahamiyatga ega. Quyida ularning har birining tarbiyadagi o'rnini va ularga oid asosiy manbalarni keltiraman.Oila va uning o'smirlar tarbiyasidagi o'rni. Oila — o'smirlar tarbiyasining asosiy bosqichi. O'smirlarning birinchi tarbiya maktabi, deb hisoblash mumkin. Ota-ona farzandiga tarbiyaviy va axloqiy qadriyatlarni o'rgatishda birinchi mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Oila orqali o'smirlar dunyoqarash, muomala madaniyati, mas'uliyat hissi kabi muhim sifatlrni shakllantiradi.Oilaning o'smir tarbiyasidagi asosiy funksiyalari:Axloqiy tarbiya: Oila farzandiga to'g'ri axloqiy qarorlar qabul qilishni o'rgatadi.Hissiy qo'llab-quvvatlash**:** Ota-ona o'smirni hissiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi, bu esa ularning o'zini tuta olishiga yordam beradi.Mehnatsevarlik va mas'uliyat: Oila o'smirni mehnatsevarlikka va mas'uliyatni his qilishga o'rgatadi.Bu esa oiladsagi mavjud muomolarni hal qilishda va oila bilan ta'lim muassasalarining o'rnini yaxshilashda asosiy poydevorgina bo'lib qolmay har bir o'smir va o'spirinlar uchun kerakli bo'lgan barcha  ko'nikma va malakalarga ega bo'lishga undaydigan yagona omil bo'lib qoladi .[19]

Shuningdek, oila muhitining ruhiy va psixologik ta'siri o'smirlarning kelajakdagi psixologik holatiga, qarorlar qabul qilish qobiliyatiga va hayotga bo'lgan yondashuvlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

### Oila, Mahalla va Ta'lim Muassasalarining Hamkorligi

Oila, mahalla va ta'lim muassasalari o'rtasida samarali hamkorlik o'smirlarni tarbiyalashda asosiy  jihatlarga ega. Ularning o'zaro aloqalari o'smirlarning individualligi, dunyoqarashi va axloqiy rivojlanishiga uzviy ta'sir

FOR AUTHOR USE ONLY

[19] Saidova, S. (2020). Oila va maktabda tarbiya: nazariy va amaliy yondoshuvlar. *Pedagogika va psixologiya ilmiy jurnali,* 12(3), 16-53

ko‘rsatadi. Ota-ona, o‘qituvchi va mahalla a'zolari birgalikda  ish orqali o‘smirning jamiyatga to‘g‘riadaptatsiya qilishini taminlaydi .

Oila, mahalla va ta’lim muassasalarining o‘smirlar tarbiyasidagi o‘rni bir-biri bilan chambarchas bog‘liq va o‘zaro to‘ldiradi. Ularning har biri o‘smirlarni ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy jihatdan shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Oila o‘z farzandiga sevgisi va mehr-muhabbati bilan tarbiya beradi, mahalla ijtimoiy muhitni taqdim etadi, ta’lim muassasalari esa bilim va axloqiy qadriyatlarni o‘rgatadi.Axloqiy tarbiya — bu o‘smirlarga to‘g‘ri va adolatli qarorlar qabul qilish, yaxshi va yomonni ajratish, insoniy qadriyatlar va ahloqiy me'yorlarni o‘rgatish jarayonidir. Oila o‘smirlarni birinchi navbatda axloqiy qoidalarga amal qilishga o‘rgatadi. Bu o‘zini boshqalar bilan qanday muomalada bo‘lishni, jamiyatda qanday o‘rin tutishni o‘rgatadi. Oila ichidagi hurmat va sevgi, to‘g‘ri qarorlar qabul qilishda, yomon odatlarni keltirib chiqarmaslikda, va o‘zaro munosabatlarda halollikda muhim rol o‘ynaydi.

FOR AUTHOR USE ONLY

**Axloqiy tarbiyaning o‘smirlar uchun ahamiyati:**

**Shaxsiyatni shakllantirish**: O‘smirning shaxsiy qadriyatlari, dunyoqarashi va ijtimoiy faolligi axloqiy tarbiya asosida shakllanadi. Oila farzandiga to‘g‘ri axloqiy qarorlar qabul qilishni o‘rgatadi, bu ularni hayotda to‘g‘ri yo‘lni tanlashga yordam beradi.

**Jamiyatda ijtimoiy moslashuv**: Axloqiy tarbiya o‘smirning jamiyatda o‘z o‘rnini topishiga, jamiyatdagi me'yorlar va qoidalar bilan moslashishiga yordam beradi. [20] Bolalarni tarbiyalash jarayonida albatda bu boradagi ilmiy nazariy qarashlar eng muhim ilmiy va saviyali jarayon sifatida qaraladi va bu boradagi ilmiy va amaliy natijalarni oqlab ham beradi.

Hissiy Qo‘llab-Quvvatlash

---

[20] Saidova, S. (2020). Oila va maktabda tarbiya: nazariy va amaliy yondoshuvlar. *Pedagogika va psixologiya ilmiy jurnali,* 12(3), 16-53\

Ota-ona o‘smirning hissiy holatiga katta e'tibor qaratadi. Hissiy qo‘llab-quvvatlash o‘smirga o‘zini qadrlash va o‘ziga ishonish hissini shakllantiradi. Hissiy qo‘llab-quvvatlash oila ichidagi ishonch va mehr-muhabbatni mustahkamlash orqali o‘smirning hissiy barqarorligini ta'minlaydi. O‘smirlar ko‘pincha stressli holatlarda, o‘zining kimligini aniqlash davrida ota-onadan hissiy yordam kutadilar. Ota-onaning vaqtida ko‘rsatilgan qo‘llab-quvvatlash o‘smirni ruhiy barqarorlikka erishishga yordam beradi.

Hissiy qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati:Ishonch va o‘zini tuta olish: O‘smirlar ota-onalarining hissiy qo‘llab-quvvatlashini sezishlari natijasida o‘zlariga ishonishadi. Bu ularga turli muammolarni yengib o‘tishga yordam beradi.Ruhiy holatni mustahkamlash: O‘smirlar o‘zlarining hissiy holatlarini boshqarishni o‘rganadilar. Oiladagi hissiy qo‘llab-quvvatlash ularning ijtimoiy va emosional rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.[21] Ha har bir oilada bo ‘lgani kabi bollarning fikirlashlariga erkin ravishda tartibga solish va bolarning hissiyotlari bilan shugullanish bu boradagi ilmiy va amaliy natijalarni ham qo‘llab quvatlash lozim.

Mehnatsevarlik va Mas’uliyat Oila farzandga mehnatsevarlikni o‘rgatish, ularni turli mas'uliyatlarni his qilishga tayyorlash orqali ularda ijobiy xususiyatlarni shakllantiradi. Mehnatsevarlik va mas’uliyat hissi farzandni tartibli va muntazam ish qilishga, o‘z vazifalarini bajarishga undaydi. O‘smirlar o‘z vazifalarini to‘g‘ri bajarsa, bu ularda mustaqillikni rivojlantiradi va kelajakda katta muvaffaqiyatlarga erishishlariga yordam beradi.Hissiy barqarorlik: Mehnatsevarlik va mas’uliyat o‘smirlarnimuvaffaqiyatga erishish uchun mas'uliyatni his qilishgao‘rgatadi, bu esa ularning o‘zini tuta olishiga yordam beradi.O‘ziga ishonch: O‘smirlar mehnatsevar bo‘lish orqali o‘zlariga nisbatan ishonch hosil qilishadi va kelajakdagi qiyinchiliklarga tayyor bo‘lishadi.Jamiyatda muvaffaqiyat: Mehnatsevarlik va mas'uliyat o‘smirlarni ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatga

FOR AUTHOR USE ONLY

---

[21] Qodirov, B. (2019). O‘smirlar tarbiyasida oila va ta'lim muassasalarining o‘rni. *O‘zbekiston pedagogik ilmiy izlanishlar jurnali,* 5(4), 77-85.

erishishga tayyorlaydi.[22]Bu boradagi qarashlarga qo‘shilgan holda har bir oilada malum bir ananalar mavjud bo‘lib bu bolalar tarbiyasiga singdirilib boriladi va bu qarashlarni to‘liq ravishdda harakatlantiriladi .Mehnasevar bo‘lgan har bir jamiyatda ham bu boradagi qarashlar qo‘llab quvatlanib borilishi eng to‘g‘ri holat hisoblanadi deb o‘ylayman.

O‘smirlik davri inson hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri bo‘lib, bu davrda shaxsning psixologik, emotsional, va ijtimoiy jihatlari shakllanadi. Shuning uchun, o‘smirlar tarbiyasida oila, mahalla va ta’lim muassasalarining o‘rni juda katta. Bu uchta muhim institut o‘smirlarning ruhiy va ma'naviy rivojlanishida, ular jamiyatda o‘z o‘rnini topishida va o‘zini anglashida muhim rol o‘ynaydi.

**Oila – Shaxsiyatning Asosiy Poydevori**

Oila o‘smirlarning birinchi tarbiya maktabi hisoblanadi. O‘smirlar dastlabki ijtimoiy ko‘nikmalarni, me'yorlarni va qadriyatlarni oilada o‘rganadilar. Ota-onalar, oila a'zolari o‘z tajribalari, munosabatlari va qadriyatlari bilan o‘smirning shakllanishiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Oila o‘smirning xavfsizlikni, muhabbatni, qo‘llab-quvvatlashni his etishi uchun muhim sharoitlarni ta'minlaydi.

FOR AUTHOR USE ONLY

Ota-onalar o‘smirning xulq-atvorini nazorat qilish, unga qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatish, muammolarni birgalikda hal qilishda katta mas'uliyatni o‘z zimmasiga oladi. Agar ota-onalar o‘zaro hurmat va ishonch asosida munosabatlar o‘rnatgan bo‘lsa, o‘smir o‘zining psixologik va emotsional ehtiyojlarini qondirishda qiynalmaydi va o‘zini boshqarishda yuksak ko‘nikmalarni rivojlantiradi.

**Mahalla – Ijtimoiy Muvofiqlikni Ta’minlash**

Mahalla o‘smirlarning ijtimoiylashuvi va jamoaviy hayotga kirishishda muhim rol o‘ynaydi. Mahalla odamlarining bir-biriga bo‘lgan hurmati va o‘zaro yordam

[22] Raxmatullaeva, D. (2021). Ta’lim muassasalarining yoshlarning axloqiy tarbiyasidagi o‘rni. *O‘qituvchilar va ta’lim muassasalari jurnali,* 9(6), 34-40.

tizimi o‘smirlarning jamiyatga moslashishiga yordam beradi. Mahallada yashayotgan o‘smirlar ijtimoiy me'yorlar va odatlar bilan tanishadilar, ular o‘zlarining xulq-atvorini va munosabatlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishga harakat qilishadi.

Mahalla tarbiyasi o‘smirlarga ko‘plab mas'uliyatlarni o‘rganishga, jamiyatda o‘zining o‘rnini topishga va boshqalar bilan yaxshi munosabatlar o‘rnatishga imkon beradi. Mahallada o‘smirlar ko‘pincha o‘zlarining yoshdagi tengdoshlaridan o‘rganishadi, ularga o‘z-o‘zini tutish, muloqot qilish va mas'uliyatni his qilishni o‘rgatadi.

**Ta’lim Muassasalari – Shaxsiy Rivojlanishning Asosiy O‘qish Maydoni**

Ta’lim muassasalari o‘smirlar uchun eng muhim ijtimoiy muhitlardan biridir. Bu yerda o‘smirlar bilim olish bilan birga, ijtimoiy ko‘nikmalarni, jamiyatga moslashishni va turli rollarni o‘rganadilar. Maktabda o‘quvchilarga nafaqat akademik bilimlar, balki ijtimoiy, etika va moral qoidalari ham o‘rgatiladi.

FOR AUTHOR USE ONLY

O‘smirlar o‘zlarining ijtimoiy hayotini ta’lim muassasasida quradilar, bu yerda ular tengdoshlari bilan muloqot qiladilar, jamoaviy ishlarni bajaradilar va o‘zini jamiyatda to‘g‘ri tutish ko‘nikmalarini rivojlantiradilar. O‘qituvchilar va pedagoglar o‘smirlarning ijtimoiylashuvida yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi shaxslar hisoblanadi. Ular o‘smirlarning ruhiy holatini nazorat qilish, ularni jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiylashtirish va ma'naviy rivojlantirishda yordam beradi.

**O‘smirlarning Tarbiyasida O‘zaro Ta'sir**

Oila, mahalla va ta’lim muassasalarining o‘smirlar tarbiyasidagi o‘rni o‘zaro chambarchas bog‘liqdir. Oila o‘smirga asosiy qadriyatlarni o‘rgatgan bo‘lsa, mahalla va ta’lim muassasalari ularni amaliyotda qo‘llash va ijtimoiy me'yorlarga moslashtirishda yordam beradi. O‘smir oila va mahalladagi hayotini ta’lim

muassasasida o‘rganilgan bilimlar bilan uyg‘unlashtiradi va ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli integratsiya qiladi.

Agar ota-onalar, mahalla va ta’lim muassasalari bir-biri bilan hamkorlikda ishlasa, o‘smirlarning tarbiyasida ko‘p ijobiy natijalarga erishish mumkin. Bu uchta institutning birgalikda ishlashi o‘smirlarni ijtimoiylashtirish, ularni jamiyatga moslashishga yordam berish, ularning salbiy xulq-atvori va xatti-harakatlarini nazorat qilishda muhim rol o‘ynaydi.[23]

## 1.3. Tarbiyasi og‘ir o‘smirlarning ijtimoiylashuvi jarayoniga ta’sir etuvchi omillar

O‘smirlik davri inson hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri bo‘lib, bu davrda shaxsning yagonaligi, xarakteri va jamiyatga moslashuvi shakllanadi. Biroq, ba’zi o‘smirlar tarbiyasi og‘ir yoki ijtimoiy muammolarga duch kelgan bo‘lib, ularning ijtimoiylashuvi murakkab bo’ladi. Ushbu jarayonga turli omillar ta’sir etadi va ularni o‘rganish pedagogika, psixologiya va sotsiologiya uchun muhim ahamiyat kasb etibgina qolmay barcha davrlarda birdek ardoqlidir .Biz hayotim davomida turli bosqichlarni bosib o ‘tamiz har bir pag‘onada yangicha bir pag‘onani bosib o‘tamiz bu zinalardan eng qiyinchilik va og‘irlik bilan o‘tadigan jarayon bu o‘smirlikdir .Tarbiyasi og ‘ir o‘smirlar aynan shu pog‘onada murakkab bo‘lgan to‘siqqa duch kelgan bo‘ladi  bu to‘siqlarni yengib o‘tishi uchun atrofdagilarning ya’niy jamiyatning o‘rni boshqacha bo‘ladi.Yaniy jamiyat to‘ri yo‘l ko‘rsatsaginina bu qorong‘u bo‘lgan yo‘ldan chiqib ketish oson bo‘ladi.

**Tarbiyasi og‘ir o‘smirlarning xususiyatlari.** Tarbiyasi og‘ir o‘smirlar deganda, odatda, oilaviy, maktab va jamiyat muhitiga moslasha olmaydigan, nojo‘ya xatti-harakatlarga moyil bo‘lgan hamda axloqiy buzilishlarga ega bo‘lgan yoshlar tushuniladi. [24]

FOR AUTHOR USE ONLY

---

[23] Akbarov, N. "O‘smirlarning ijtimoiylashuvi va tarbiyasi." *Pedagogika va Psixologiya*, 2020, № 8, 55-57-bet.

[24] Erikson, E. H. (1968). *Identity: Youth and Crisis*. W. W. Norton & Company.

Oila va mahalla o‘smir tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi. Ularning hamkorligi yosh avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasini shakllantirishda hal qiluvchi omillardan biridir. Biroq, bu hamkorlikda ayrim muammolar mavjud bo‘lib, ular o‘smirning tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Oila va mahalla o‘rtasidagi yetarli hamkorlik yo‘qligi Ba’zi hollarda ota-onalar farzand tarbiyasini to‘liq mahallaga yuklaydi yoki aksincha, mahalla tarbiyada yetarlicha ishtirok etmaydi. Mutaxassislarning fikricha, oilaning va mahallaning tarbiyaviy faoliyatida muvofiqlik bo‘lmasa, yosh avlodda ijtimoiy moslashuv jarayoni murakkablashadi. Hosh bugunga kelib har bir jamiyat shunday murakkab jarayonlarga kelib qolishining asosiy sabablari nimada deb o‘ylaysiz demak har bir holatlar uchun alohida alohida o‘z fikrimni berib o‘taman. Ha hozirgi yosh avlodni tarbiyalash anchayin murakkab lashib bormoqda bolalar ayniqsa yomon hatti harakatlarni o‘zlashtirib olishga juda moil hisoblanadi bolalarning qilayotgan har bir noqobil harakatida ota –onaning o‘rni katta hisoblanadi bunda ta’lim muassai va jamiyatni ham har doimo ayiblayverish qiyin. Ota-onalar va ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar bulardan anchayin oldinda bo‘lishiga qaramasdan bu boradagi ishlar hozirda ham ta’lim muassasiga yuklatilib kelinmoqda . Ota-onalarning e’tiborsizligi: Ko‘plab ota-onalar bandligi sababli farzand tarbiyasiga yetarli vaqt ajratmaydi. Shu sababli, o‘smirlarning ijtimoiy hayotidagi muammolarni erta sezish va oldini olishda sustkashlik yuzaga keladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, oilada yetarlicha e’tibor va nazorat bo‘lmasa, yoshlar orasida deviant xatti-harakatlar shakllanishi ehtimoli ortadi. Deviant xulq-atvor — mikro ijtimoiy munosabatlar (oilaviy, maktabdagi munosabatlar) va kichik ijtimoiy guruhlarga xos bulgan ijtimoiy me’yorlar va xulq-atvor qoidalarini buzish bilan bog‘liq me’yordan og‘uvchi xulq-atvor turlaridan biridir. Bu xulq-atvorni “g‘ayriintizomiy” deb atasak ham bo‘ladi.Demak bu qarashlarga mos keladigan o ‘smirlarni topish unchalik ham mushkul jarayon emas .Hozirgi davirda bunday hulqli o ‘smirlar aksaryatni tashkil qiladi. Bolalarda bu holat avvola oilada mavjud bo‘lgan ta ‘lim va tarbiyaga borib taqaladi .Deviant xulqli bolar bu malum holatlarga yoki tabiatga jonivorlarga nisbatdan anchayin yovuzroq bo‘lib ularni

FOR AUTHOR USE ONLY

qiynashi va azoblashni yoqtiradilar . Hayvonlarni qiynaydigan bolarni tez –tez uchratib turamiz bu holatlarni biz shunchaki bolarcha shoxlik deb o‘tib ketmasdan ularga bo‘lgan aksarayat qiziqishlarimizni ham bildirib o‘tsak mubolag‘a bo‘lmaydi,ularni bu yo‘ldan qaytarish va ularga to‘ri maslahatimizni bermoqligimiz lozim. Notog‘ri tarbiya va salbiy muhit. Noto‘g‘ri tarbiya usullari (qo‘pollik, befarqlik, haddan tashqari qattiqqo‘llik) o‘smirning ruhiy holatiga salbiy ta’sir qiladi. Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar shuni tasdiqlaydiki, noto‘g‘ri tarbiya natijasida o‘smirlarda o‘ziga ishonchsizlik, tajovuzkorlik yoki befarqlik shakllanishi mumkin. Notog‘ri tarbiya va salbiy muhit o‘smirlarning shaxsiyati shakllanishiga bevosita ta’sir qiluvchi omillardandir. Oila va mahallada noto‘g‘ri yondashuv, befarqlik yoki qattiqqo‘llik kabi omillar o‘smir ruhiyatida salbiy iz qoldirishi mumkin. Haddan tashqari qattiqqo‘llik -ota-onalar yoki mahalla faollari tomonidan haddan tashqari nazorat va jazo usullari qo‘llanilganda, o‘smir 1250 ichki norozilik, qo‘rquv va ishonchsizlik hissini rivojlantirishi mumkin. Bu esa ularning yolg‘on gapirish, isyonkorlik yoki depressiyaga tushish ehtimolini oshiradi. Befarqlik – ota-onalarning farzand tarbiyasiga e’tiborsizligi yoki ular bilan yetarlicha vaqt o‘tkazmasligi o‘smirning o‘ziga bo‘lgan ishonchining pasayishiga olib keladi. Natijada u tashqi muhit (ko‘cha, internet, yomon do‘stlar) ta’siriga berilishi mumkin.Zo‘ravonlik va tazyiq – oilada yoki mahallada jismoniy yoki ruhiy tazyiq (qichqirish, haqorat qilish, jismoniy jazo) mavjud bo‘lsa, o‘smir tajovuzkor yoki aksincha, o‘zini yakkalab qo‘yuvchi shaxs sifatida shakllanishi mumkin.Haddan tashqari erkalash – bolaga barcha istaklarini hech qanday cheklovlarsiz bajara berish, ularni hayot sinovlariga tayyorlamaslik natijasida o‘smir hayotdagi qiyinchiliklarga dosh bera olmaydi va irodasiz bo‘lib ulg‘ayadi. O‘smirlarga psixologik yondashuv yetishmovchiligi O‘smirlik davri inson hayotidagi eng nozik bosqichlardan biri bo‘lib, ularga individual yondashuv zarur. Biroq, ko‘plab ota-onalar va mahalla faollari psixologik bilim yetishmovchiligi sababli muammolarni to‘g‘ri hal qila olmaydi. O‘smirlarga noto‘g‘ri yondashuv ularning ruhiy tushkunlik, stress va ishonchsizlik holatlariga tushib qolish ehtimolini oshiradi. O‘smirlik davri inson hayotidagi eng nozik bosqichlardan biri

FOR AUTHOR USE ONLY

bo‘lib, bu davrda ularga shaxsiy va psixologik yondashuv muhim ahamiyat ega hisoblanadi Biroq, ko‘plab oilalar va mahalla faollari psixologik bilim yetishmovchiligi sababli o‘smirlarning muammolarini to‘g‘ri tushunmaydi va ularga mos e’tibor bilan qaramaydi . Ijtimoiy tarmoqlar va zamonaviy axborot vositalarining ta’siri :Internet va ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri ortib borayotgan bir paytda, ota-onalar va mahalla bu jarayonda yetarlicha ishtirok eta olmayapti. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, nazoratsiz qoldirilgan o‘smirlar internetdagi salbiy ta’sir ostida shaxsiyati shakllanishida muammolarga duch kelishi mumkin. Internet va ijtimoiy tarmoqlar – ota-ona nazorati bo‘lmasa, yoshlar zararli axborotlarning qurboniga aylanib qolishi aniqlashib bormoqda. Bunga zo‘ravonlik targ‘ib qiluvchi internetdagi salbiy kontentlar, teroristik g‘oyalar va axloqsiz materiallar misol bo‘la oladi. Jamoaviy nazorat va tartibning sustligi Mahalla tomonidan yoshlarning tarbiyasini nazorat qilish mexanizmlari yetarlicha ishlamaydi. Ayrim joylarda yoshlarni to‘g‘ri yo‘naltiradigan tadbirlar, sport va madaniy faoliyat yetarlicha rivojlanmagan. Mahalla muhitining ijtimoiy barqarorligi va yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlar ularning kelajakdagi hayot yo‘nalishini belgilab beradi. Mahalla yoshlarning tarbiyasida muhim rol o‘ynaydi, chunki u jamiyatning eng yaqin ijtimoiy muhitlaridan biridir. Mahalla tomonidan tarbiya jarayonini samarali nazorat qilish uchun quyidagi mexanizmlar qo‘llanilishi kerak: Oila va mahalla hamkorligini kuchaytirish uchun quyidagi choralar ko‘rish lozim: Ota-onalar va mahalla faollari o‘rtasida muntazam muloqot o‘rnatish. O‘smirlarni qiziqtiradigan ijtimoiy loyihalar va to‘garaklarni tashkil etish. mahallalarda psixolog va pedagoglar bilan maslahat uchrashuvlari o‘tkazish. Oilaviy tarbiya va axborot xavfsizligi bo‘yicha maxsus treninglar o‘tkazish. Agar oila va mahalla o‘zaro hamkorlikni mustahkamlasa, o‘smirlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatish osonlashadi va ularning jamiyatga foydali inson bo‘lib yetishishiga imkoniyat yaratiladi.[25]

*OILA bu har bir insoning nozik va ayni damda qadirli bo‘lgan nuqtasi bo‘lib har bir odam uchun kerakli va ayni damda muhim sanaladi. Oilada paydo bo‘ladigan nizolarning aksaryati bolalarni tushinmaslik ularning fikri bilan o‘rtoqlashmaslik*

FOR AUTHOR USE ONLY

[25] file:///C:/Users/talaba/Downloads/Turakulov%202.pdf

*va kattalarcha o‘ylash oqibatida bolarning hali bola ekanliklarini esdan chiqarishdir .*

**Nazorat yetishmovchiligi yoki ortiqcha qat’iylik** – haddan tashqari qattiq tartib-intizom yoki befarqlik bolani noto‘g‘ri yo‘lga boshlashi mumkin.**Ijtimoiy-iqtisodiy ahvol** – kambag‘allik yoki boylik ham bolalarning ijtimoiylashuviga ta’sir qiladi. Kambag‘allik sharoitida yashovchi bolalar ko‘pincha jinoiy harakatlarga moyil bo‘ladi.[26]

Qatiqqo‘l bo‘lish har doim ham birdek bolalar va o‘smirlar uchun ijobiy tasir ko ‘rsata vermaydi.Bolalarda bu holat kuchayib borsa yo o‘ta qo‘rqoq yo bo‘lmasa o‘ta jahildor b o’lib qolishga olib keladi. Natijada bola o ‘z fikirlari bilan o‘rtoqlashmay qo ‘yadi va tashqaridan yaqin inson qidirisni boshlaydi.

FOR AUTHOR USE ONLY

[26]Merton, R. K. (1938). *Social Structure and Anomie*. American Sociological Revie

## II BOB. Tarbiyasi og‘ir o‘smirlarni ijtimoiylashtirishda oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligining holati va muammolari

### 2.1. O‘zbekistonda tarbiyasi og‘ir o‘smirlarning shaxslararo munosabatlarni o‘rganish.

Jamiyatimizda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar har tomonlama yetakchi shaxsini shakillantirish kabi ma’sulyatni talab qilmoqda. Albatta yoshlarni, intelektual salohiyatli va ma’naviy yetuk, psixologik barqaror shaxs etib tarbiyalash barcha ijtimoiy institutlarning ustuvor vazifasi sanaladi. Psixologiya fanining va birinchi navbatda ijtimoiy psixologiyaning vazifasi, o‘smir guruhlarining psixologiyasi keng qamrovli va tizimlilikdan iborat jarayonida yuzaga keladigan qiyinchilik va qarama-qarshiliklarni o‘rganish, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash lozimligi ahamiyat kasb etmoqda.

O‘smirlik davriga ko‘pincha kattalarga bo‘ysunmaslik, har- hasha, o‘jarlik, o‘z nuqsonlarini tan olmaslik, tajanglik  kabi salbiy xususiyatlar xosdir. Bunga oddiy sabab  bu davrda o‘smirlar  katta yoshli odamlar hos bolgan hamma narsalardan foydalanishga harakat qiladilar, atrofidagi  insonlarga o‘zining ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatish uchun esa har taraflama baquvat, qo‘rqmas, kuchli va o‘zi erkin ish  yurituvchi bo‘lishga intiladi. O‘smirlarning talablari va faoliyatlari  o‘zaro mos kelmasligi oilada, maktabda keskin muomoli  vaziyatlarni shuningdek, o‘smirlar bilan ota-onalari, o‘qituvchilari va boshqa o‘qtuvchilar o‘rtasida muomolarga olib keladi. Albatta bu jarayonlar uning xarakter aksentuasiyasi bilan bog‘liq.

FOR AUTHOR USE ONLY

**Oila, mahalla va ta’lim muassasalari hamkorligi** Tarbiyasi og‘ir o‘quvchilarni ijtimoiylashtirishda oila, mahalla va ta’lim muassasalarining hamkorligini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega bo’lib bormoqda. Ushbu jarayon orqali o‘quvchilarning tarbiyasi va xulq-atvorini yanada yaxshillashga erishib kelinmoqda bugungi kunga kelib har qanday  holatlar bolalarning psixologiyasiga ta’sir etibgina qolmay butun bir davr davomida  bolalarga ta’luqli hisoblanadi .

Mahallada faoliyat yurutuvchi faollar va maktab psixologlari o‘quvchilar bilan suhbatlar o‘tkazib, ularning ijtimoiy jarayonlarga moslashiga yordam beradi.

**Ijtimoiy-huquqiy yordam markazlari faoliyati**.Toshkent shahrida Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazida 15-18 yoshdagi tarbiyasi og‘ir va o’z fel atvorida o’zgarishi bor yoshlar bilan bir oy davomida ijtimoiy-huquqiy va psixologik tadbirlar o‘tkazildi. Ushbu jarayonlar yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularning huquqbuzarlik va jinoyat sodir etishning oldini olishga yo’naltirilgan .

**Oila va maktab hamkorligini takomillashtirish** Tarbiyasi og‘ir bolalarni ijtimoiylashtirishda oila va maktab hamkorligini takomillashtirish orqali ularning ijtimoiy moslashuvi va fel -atvorini yaxshilashga erishilib kelinmoqda . Ushbu yo‘nalishda pedagogik-psixologik yondashuvlar qo‘llanilib, har bir o’quvhi uchun individual ishlar yetarlicha olib boriladi. Masalan, ota-onalar va ularning o’rnini bosuvchilar bilan doimiy muloqot o‘tkazish, o‘quvchilarning psixologik holatini muntazam ravishda taqqoslash va shaxsiy reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqish bu boradagi samarali yondashuvlardan biridir bo’lib qolmoqda .Bugungi kunda olib borilayotgan bunday jarayonlar va tavsiyalar hozirgi kundagi dolzarb jarayonlarining biri bo’lib qolmoqda.

FOR AUTHOR USE ONLY

**Mahalla va maktab hamkorligida tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirish** Tarbiyasi og‘ir o‘quvchilarni oila, maktab va mahalla birgalikda tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish orqali ularning xulq-atvorini yaxshilashga yordam beradi .Jumladan, talabalar uchun maxsus ta’lim va tarbiya dasturlari ishlab chiqililgan bo’lib, ularni amalga oshirishda oila azolari ,psixologlar, pedagoglar va mahalla faollari birgalikda har bir holatlar uchun harakat qilib borishi shart.

**Tarbiyasi og‘ir o‘quvchilar bilan ishlash jarayonlari** Tarbiyasi og‘ir o‘quvchilar bilan ishlashda ularning oilasi, do‘stlari va atrof-muhitini o‘rganish, shuningdek, shaxsiy yondashuvlarni qo‘llash anchayin samarali hisoblanadi. Psixologlar va ijtimoiy pedagoglar ushbu o‘quvchilar bilan alohida ishlash orqali ularning ijtimoiy moslashuviga yordam beradi. Bu jarayonda interfaol metodlardan

foydalanish va o‘quvchilar bilan shaxsiy suhbatlar o‘tkazish katta foyda beradi o’quvchilar uchun .

O‘zbekistonda tarbiyasi og‘ir o‘smirlar bilan ishlash muhim ijtimoiy masala bo‘lib, davlat tomonidan shu yo‘nalishda qator tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Tarbiyasi og‘ir o‘smirlar-huquqbuzarlik, axloqiy xatolar yoki ijtimoiy moslashuvdagi qiyinchiliklar bilan duch kelgan yoshlar bo‘lib, ularni ijtimoiy hayotga qaytarish, to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltirishga qaratilgan dasturlarni amalga oshirish katta ahamiyatga ega. [27] Bu boradagi ilmiy va nazariy qarashlarni o‘rgangan holda biz o‘imizning so‘rovnoma holda o‘tkazilgan tatqiqot jarayonimiz bilan qilingan ishlar yuzasidan solishtirib boramiz .

O‘zbekistonda o‘smirlar bilan ishlashda psixologik va pedagogik yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. 2017 yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o‘smirlar va yoshlar o‘rtasida salbiy xulq-atvorni oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Ushbu qaror asosida, yoshlarning salbiy xulq-atvorini kamaytirish, ularni to‘g‘ri tarbiyalash maqsadida bir qator psixologik va pedagogik dasturlar ishlab chiqilgan.

FOR AUTHOR USE ONLY

Biz magistrlik dessertatasiyamizning maqsadida ko’rsatilgan ishni amalga oshirish uchun Liri.Sobchikning Shaxslararo munosabatlarni o’rganinsh metodikasidan foydalandik Metodikani o’tkazishdan maqsad boshqa m**etodikalar o‘rtasidagi korrellatsion aloqalarning asosiy jihatlarini tahlil qildik.** Biz magistrlik taqdiqotimizda foydalangan T.Liri-Sobchik “Shaxslararo munosabatlarni o‘rganish ”metodikasi va R.B.Kettel “Shaxsning 16 omildan foydalanib o‘rganish so‘rovnomasi” larning korrelyatsion xususiyatlarini Pirson korrelatsya koeffisenti asosida tahlil qilib, tarbiyasi og‘ir o‘smirlarni ijtimoiylashtirishning psixologik xususiyatlarini hududlar kesimida o‘rganib chiqdik.Olingan jadval quydagi 2.1.1-jadvalda o‘z aksini topgan.

[27] https://doi.org/10.5281/zenodo.8114907

T.Liri-Sobchik "Shaxslararo munosabatlarni o'rganish "metodikasi natijalar tahlili 2.1.1-jadvalda.

| Faktorlar | Hukron-liderlik | Mustaqil-ustuvorlik | To'g'ri– tajovuzkor | Ishonchsizlik-skeptiklik | Itoatkor-tortinchoqlik | Bog'liqlik– | Hamkorlik–konvensiallik | Ma'suliyatli–bag'rikenglik | Muloqotga moyillik | Hissiy barqarorlik-beqarorlik | Hukmronlikka | Ijtimoiy yetuklik-onglilik | Ijtimoiy mardlik (dadillik- | Ishonuvchanlik–shubhalanish | O'ziga ishonch-ishonmaslik | Mustaqillik – tobelik | O'zini nazorat qilish | Qo'zg'aluvchanlik zo'riqish-bo'shashish |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Hukron-liderlik | 1 | ,413(**) | ,058 | ,440(**) | ,315(*) | ,206 | ,245 | ,200 | ,282(*) | ,101 | ,084 | ,173 | ,257 | ,160 | ,033 | -,276 | ,023 | ,233 |
| Mustaqil-ustuvorlik | | 1 | ,164 | ,537(**) | ,332(*) | ,187 | ,218 | ,264 | ,154 | ,158 | ,286(*) | ,161 | ,201 | ,118 | ,180 | ,084 | ,146 | ,346(*) |
| To'g'ri – tajovuzkor | | | 1 | ,098 | ,042 | ,165 | -,016 | ,152 | ,090 | ,089 | ,107 | ,195 | ,093 | -,038 | -,026 | -,077 | -,025 | ,138 |
| Ishonchsizlik-skeptiklik | | | | 1 | ,617(**) | ,290(*) | ,292(*) | ,490(**) | ,312(*) | ,049 | ,070 | -,053 | ,269 | ,127 | ,065 | ,033 | ,177 | ,099 |
| Itoatkor-tortinchoqlik | | | | | 1 | ,365(**) | ,332(*) | ,332(*) | ,182 | ,035 | -,003 | ,159 | ,296(*) | ,046 | ,026 | ,229 | ,181 | ,120 |
| Bog'liqlik–bo'ysunuvchanlik | | | | | | 1 | ,407(**) | ,417(**) | -,065 | -,016 | -,084 | ,137 | ,104 | -,230 | ,065 | ,016 | ,091 | -,227 |
| Hamkorlik–konvensiallik | | | | | | | 1 | ,386(**) | -,086 | -,002 | -,052 | -,006 | ,273 | ,106 | ,057 | -,073 | ,332(*) | ,107 |
| Ma'suliyatli–bag'rikenglik | | | | | | | | 1 | ,056 | ,113 | ,008 | -,131 | -,022 | -,141 | -,137 | -,095 | -,055 | -,087 |
| Muloqotga moyillik | | | | | | | | | 1 | ,133 | ,087 | ,125 | ,152 | ,194 | ,069 | ,030 | -,144 | ,080 |

FOR AUTHOR USE ONLY

| | | | | | | | | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Hissiy barqarorlik-beqarorlik | | | | | | | | | | 1 | ,447(**) | ,259 | ,087 | ,266 | ,227 | ,265 | ,102 | ,028 |
| Hukmronlikka intilish-tobelik | | | | | | | | | | | 1 | ,289(*) | ,065 | ,150 | ,297 (*) | ,292(*) | ,292(*) | ,172 |
| Ijtimoiy yetuklik-onglilik | | | | | | | | | | | | 1 | ,218 | ,028 | -,180 | ,168 | -,111 | ,230 |
| Ijtimoiy mardlik (dadillik-tortinchoqlik) | | | | | | | | | | | | | 1 | -,018 | ,144 | ,107 | ,168 | ,165 |
| Ishonuvchanlik–shubhalanish | | | | | | | | | | | | | | 1 | ,213 | ,040 | ,355(*) | ,193 |
| O‘ziga ishonch-ishonmaslik | | | | | | | | | | | | | | | 1 | ,158 | ,299(*) | ,035 |
| Mustaqillik – tobelik | | | | | | | | | | | | | | | | 1 | ,055 | -,104 |
| O‘zini nazorat qilish | | | | | | | | | | | | | | | | | 1 | ,123 |
| Qo‘zg‘aluvchanlik zo‘riqish-bo‘shashish | | | | | | | | | | | | | | | | | | 1 |

FOR AUTHOR USE ONLY

Izoh:p<0,05*, p<0,01**

Yuqoridagi jadval bizga beryotgan ma’lomotga ko‘ra, T.Liri-Sobchik “Shaxslararo munosabatlarni o‘rganish” metodikasining hukmron-liderlik shkalasi bilan mustaqil-ustuvorlik (r=413;p≤0,01) shkalasi, ishonchsizlik-skeptiklik (r=440;p≤0,01) shkalasi, itoatkor-tortinchoqlik (r=315;p≤0,05) shkalasi, R.B.Kettel “Shaxsning 16 omildan foydalanish so‘rovnomasi” larning muloqotga moyillik (r=282;p≤0,05) shkalasi bilan korrelyatsion aloqadorlik mavjudligini ko‘rsatdi. Demak, bundan xulosamiz shuki, hukmron-liderlik ortgani sari shaxsda mustaqillik-ustuvorlik, ishonchsizlik-skeptiklik, itoatkor-tortinchoqlik, muloqotga moyillik ham ortib boraveradi.

T.Liri-Sobchik “Shaxslararo munosabatlarni o‘rganish” metodikasining mustaqillik-ustuvorlik shkalasi bilan ishonchsizlik-skeptiklik (r=537;p≤0,01)

shkalasi, itoatkor-tortinchoqlik (r=332;p≤0,05) shkalasi, R.B.Kettel "Shaxsning 16 omil yordamida oʻrganish soʻrovnomasi" ning hukmronlikka intilish-tobelik (r=286;p≤0,05) shkalasi, qoʻzgʻaluvchanlik zoʻriqish-boʻshashish (r=346;p≤0,05) shkalasi bilan korrelatsion aloqadorlik mavjudligini koʻrsatdi.Demak,bundan xulosamiz shuki, mustaqillik-ustuvorlik ortgani sari shaxsda ishonchsizlik-skeptiklik, itoatkor-tortinchoqlik, hukmronlikka intilish-tobelik, shubxalanuvchanlik, ham ortib boraveradi.

Jadvalimizning 4-qatoridan joy olgan T.Liri-Sobchik "Shaxslararo munosabatlarni oʻrganish" metodikasining ishonchsizlik-skeptiklik shkalasi bilan itoatkor-tortinchoqlik (r=617;p≤0,01) shkalasi, bogʻliqlik–boʻysunuvchanlik (r=290;p≤0,05) shkalasi, hamkorlik–konvensiallik (r=292;p≤0,01) shkalasi, ma'suliyatli–bagʻrikenglik(r=490;p≤0,01) shkalasi, R.B.Kettel "Shaxsning 16 omildan foydalanib oʻrganish soʻrovnomasi" larning muloqotga moyillik (r=312;p≤0,05) shkalasi bilan korrelyatsion aloqadorlik mavjudligini koʻrsatdi..Demak,bundan xulosamiz shuki, ishonchsizlik-skeptiklik qanchalik ortgani sari shaxsda itoatkor-tortinchoqlik, bogʻliqlik–boʻysunuvchanlik, hamkorlik–konvensiallik, ma'suliyatli–bagʻrikenglik, muloqotga moyillik ham ortib boraveradi.

FOR AUTHOR USE ONLY

Jadvalimizning 5-qatoridan joy olgan T.Liri-Sobchik "Shaxslararo munosabatlarni oʻrganish" metodikasining itoatkor-tortinchoqlik shkalasi bilan bogʻliqlik–boʻysunuvchanlik (r=365;p≤0,01) shkalasi, hamkorlik–konvensiallik (r=332;p≤0,05) shkalasi, ma'suliyatli–bagʻrikenglik(r=332;p≤0,05) shkalasi, R.B.Kettel "Shaxsning 16 omildan foydalanib oʻrganish soʻrovnomasi" larning ijtimoiy mardlik (dadillik-tortinchoqlik) (r=296;p≤0,05) shkalasi bilan korrelyatsion aloqadorlik mavjudligini koʻrsatdi.Demak,bundan xulosamiz shuki, itoatkor-tortinchoqlik qanchalik ortgani sari shaxsda bogʻliqlik–boʻysunuvchanlik, hamkorlik–konvensiallik, ma'suliyatli–bagʻrikenglik, ijtimoiy mardlik (dadillik-tortinchoqlik) ham ortib boraveradi.

T.Liri-Sobchik "Shaxslararo munosabatlarni oʻrganish" metodikasining bogʻliqlik–boʻysunuvchanlik shkalasi bilan hamkorlik–konvensiallik

(r=407;p≤0,01) shkalasi, ma'suliyatli–bag'rikenglik(r=417;p≤0,01) shkalasi bilan kuchli korrelatsion aloqadorlik mavjudligini ko'rsatdi.Demak,bundan xulosamiz shuki, bog'liqlik–bo'ysunuvchanlik qanchalik ortgani sari shaxsda hamkorlik–konvensiallik, ma'suliyatli–bag'rikenglik ham ortib boraveradi.

T.Liri-Sobchik "Shaxslararo munosabatlarni o'rganish" metodikasining hamkorlik–konvensiallik shkalasi bilan ma'suliyatli–bag'rikenglik (r=386;p≤0,01) shkalasi, R.B.Kettel "Shaxsning 16 omil yordamida o'rganish so'rovnomasi" larning o'zini nazorat qilish (r=332;p≤0,05) shkalasi bilan korrelatsion aloqadorlik mavjudligini ko'rsatdi.Demak,bundan xulosamiz shuki, hamkorlik–konvensiallik qanchalik ortgani sari shaxsda ma'suliyatli–bag'

rikenglik, o'zini nazorat qilish ham ortib boraveradi.

R.B.Kettel "Shaxsning 16 omil yordamida o'rganish so'rovnomasi" ning hissiy barqarorlik-beqarorlik shkalasi bilan hukmronlikka intilish-tobelik (r=447;p≤0,01) shkalasi bilan korrelatsion aloqadorlik mavjudligini ko'rsatdi. Demak,bundan xulosamiz shuki, hissiy barqarorlik-beqarorlik qanchalik ortgani sari shaxsda hukmronlikka intilish-tobelik ham ortib boraveradi.

FOR AUTHOR USE ONLY

R.B.Kettel "Shaxsning 16 omil yordamida o'rganish so'rovnomasi" ning hukmronlikka intilish-tobelik shkalasi bilan ijtimoiy yetuklik-onglilik (r=289;p≤0,05) shkalasi, o'ziga ishonch-ishonmaslik (r=297;p≤0,05) shkalasi, mustaqillik – tobelik (r=292;p≤0,05) shkalasi, o'zini nazorat qilish (r=292;p≤0,05) shkalasi bilan korrelatsion aloqadorlik mavjudligini ko'rsatdi.Demak,bundan xulosamiz shuki, hukmronlikka intilish-tobelik qanchalik ortgani sari shaxsda ijtimoiy yetuklik-onglilik, o'ziga ishonch-ishonmaslik, , mustaqillik – tobelik , o'zini nazorat qilish ham ortib boraveradi.

R.B.Kettel "Shaxsning 16 omil yordamida o'rganish so'rovnomasi" ning ishonuvchanlik–shubhalanish shkalasi bilan o'zini nazorat qilish (r=355;p≤0,05) shkalasi bilan korrelatsion aloqadorlik mavjudligini ko'rsatdi.Demak,bundan xulosamiz shuki, ishonuvchanlik–shubhalanish qanchalik ortgani sari shaxsda o'zini nazorat qilish ham ortib boraveradi.

R.B.Kettel “Shaxsning 16 omil yordamida o‘rganish so‘rovnomasi” ning o‘ziga ishonch-ishonmaslik shkalasi bilan o‘zini nazorat qilish (r=299;p≤0,05) shkalasi bilan korrelatsion aloqadorlik mavjudligini ko‘rsatdi. Demak,bundan xulosamiz shuki o‘ziga ishonch ortgani sari shaxsda o‘zini nazorat qilish ham ortib boraveradi.O‘tkazilgan korrelyatsion tahlil natijalari T.Liri-Sobchikning “Shaxslararo munosabatlarni o‘rganish” metodikasi va R.B.Kettelning “Shaxsning 16 omili” so‘rovnomasidagi ko‘rsatkichlar o‘rtasida turli darajadagi statistik ahamiyatga ega bo‘lgan bog‘liqliklar mavjudligini ko‘rsatdi.

Xususan, hukmron-liderlik ko‘rsatkichining ortishi mustaqillik-ustuvorlik, ishonchsizlik-skeptiklik, itoatkor-tortinchoqlik va muloqotga moyillik darajasining ortishi bilan bog‘liq ekanligi aniqlandi. Mustaqillik-ustuvorlik shkalasi esa ishonchsizlik, itoatkorlik, hukmronlikka intilish va qo‘zg‘aluvchanlik bilan ijobiy bog‘liqlikda ekani kuzatildi.Shuningdek, ishonchsizlik-skeptiklik darajasining oshishi itoatkorlik, bog‘liqlik, hamkorlik, bag‘rikenglik va muloqotga moyillik bilan bog‘liq ekani, itoatkor-tortinchoqlik esa shaxsning bog‘liqlik, hamkorlik, bag‘rikenglik va ijtimoiy mardlik kabi jihatlarini kuchaytirishini ko‘rsatmoqda.Bog‘liqlik–bo‘ysunuvchanlik va hamkorlik–konvensiallik o‘zaro kuchli bog‘liqlikka ega bo‘lib, bu fazilatlar ortgani sari shaxsda mas'uliyatli-bag‘rikenglik va o‘zini nazorat qilish ham ortib borayotgani aniqlangan.R.B.Kettel metodikasiga ko‘ra, hissiy barqarorlik, hukmronlikka intilish, o‘ziga ishonch, mustaqillik, ijtimoiy yetuklik va o‘zini nazorat qilish kabi ko‘rsatkichlar bir-biri bilan ijobiy korrelyatsiyada bo‘lib, bu holatlar shaxsning psixologik barqarorligi va ijtimoiy moslashuvchanligini belgilovchi muhim omillar ekanligini ko‘rsatadi.Umuman olganda, bu tahlillar shaxsning ichki psixologik xususiyatlari va ularning ijtimoiy munosabatlardagi ifodalanish shakllari o‘rtasida yaqqol bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlaydi. Ushbu natijalar psixologik tashxis, shaxsni rivojlantirish va maslahat berish jarayonlarida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

FOR AUTHOR USE ONLY

## 2.2.Oila,mahalla va ta'lim muassasi hamkorligining o'smir tarbiyasidagi muammolari.

Oila va mahalla o'smir tarbiyasida muhim rol o'ynaydi. Ularning hamkorligi.Hosh bugunga kelib har bir jamiyat shunday murakkab jarayonlarga kelib qolishining asosiy sabablari nimada deb o'ylaysiz demak har bir holatlar uchun alohida alohida o'z fikrimni berib o'taman .HA hozirgi yosh avlodni tarbiyalash anchayin murakkab lashib bormoqda , bolalar ayniqsa yomon hatti harakatlarni o'zlashtirib olishga juda moil hisoblanadi bolalarning qilayotgan har bir noqobil harakatida ota –onaning o'rni katta hisoblanadi bunda ta'lim muassai va jamiyatni ham har doimo ayiblay verish qiyin .Ota-onalar va ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bulardan anchayin oldinda bo'lishiga qaramasdan bu boradagi ishlar hozirda ham ta'lim muassasiga yuklatilib kelinmoqda .

FOR AUTHOR USE ONLY

